

**SAMARQAND VA BUXORO VILOYATLARIDAGI
ILK SALJUQIYLAR**

***Matyakubova Sohiba O‘rinboy
qizi***

*Urganch innovatsion universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası
o‘qituvchisi*

Ismailova Munira Alisherovna

*Urganch innovatsion universiteti
tarix (sirtqi) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XI asrda Movaraunnahr hududida Saljuqiylarning siyosiy, madaniy va diniy faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, Samarqand va Buxoroda ularning hukmronligi, mahalliy hokimiyatlar bilan aloqalari, boshqaruv tizimiga kiritgan islohatlari, ilm-fan va madaniyatga ko‘rsatgan e’tibori, diniy yo‘nalishdagi siyosiy strategiyalari hamda ularning tarixiy merosi ilmiy manbalar asosida yaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Saljuqiylar, Movaraunnahr, Samarqand, Buxoro, siyosiy tarix, islom madaniyati, hanafiylik, Maturidiy, ilm-fan, tarixiy meros.*

Аннотация: *В статье анализируется политическая, культурная и религиозная деятельность Сельджуков на территории Мавераннахра в XI в. В частности, их правление в Самарканде и Бухаре, их отношения с местными властями, их реформы в административной системе, их внимание к науке и культуре, их политические стратегии в религиозном направлении, а также их историческое наследие, созданное на основе научных источников.*

Ключевые слова: *Сельджуки, Мавераннахр, Самарканд, Бухара, политическая история, исламская культура, ханафизм, матуридиты, наука, историческое наследие*

Abstract: *This article analyzes the political, cultural, and religious activities of the Seljuks in the territory of Transoxiana in the 11th century. In particular, their rule in Samarkand and Bukhara, their relations with local authorities, their reforms in the administrative system, their attention to science and culture, their political strategies in the religious direction, and their historical heritage are created on the basis of scientific sources.*

Keywords: *Seljuks, Movaraunnahr, Samarkand, Bukhara, political history, Islamic culture, Hanafism, Maturidi, science, historical heritage.*

KIRISH: Saljuqiylar sulolasi XI asrda O'rta Osiyo, Eron va Kichik Osiyoda yirik siyosiy kuch sifatida shakllandi, ularning Movaraunnahrga kirib kelishi, xususan Samarqand va Buxorodagi faoliyati, mintaqaning siyosiyo, madaniy va diniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqolada Saljuqiylarning Samarqand va Buxorodagi ilk faoliyati, ularning mahalliy hokimiyatlar bilan munosabatlari, madaniy va diniy hayotga qo'shgan xissasi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Movarounnahr hududida istiqomat qilgan ilk saljuqiylar to'g'risida bir qancha mualliflar asarlarida hadma ular asosida olib borilgan tadqiqotchilar ishlarida qimmatli ma'lumotlar taqim qilinadi[1]. Jumladan, Al Bag'dodiyning Buxoro tarixiga bag'ishlangan asarida shu to'g'risida to'xtalib o'tilgan bo'lsa, V.V.Bartold[2] hamda C.E.Bosworth[3] tadqiqotlarida saljuqiylar to'g'risidagi manbalar axborotlari chuquq tahlil qilingan.

METOD: Manbalardagi ma'lumotlar tanqidiy nuqtai nazardan baholandi, ularning ishonchliligi va haqiqiyligi tekshirildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, tizimli xulosa chiqarildi. Tadqiqotning barcha bosqichlarida obektivlik va reallik prinsiplariga qat'iy amal qilindi, bu esa faktlarga asoslangan xolis va haqqoniy yondashuvni ta'minladi. Tadqiqot metodologiyasining muhim jihati shundaki, u

nafaqat an'anaviy tarixiy usullarni, balki ularning zamonaviy talqinlarini ham o'z ichiga oldi.

MUHOKAMA: Saljuqiylar XI asr boshlarida O'g'uz turk qabilalari orasidan yetishib chiqqan. Ular dastlab G'aznaviylar hizmatida bo'lib, keyinchalik mustaqil harakat qila boshladilar. 1040 – yil Dandanakan jangida G'aznaviylar ustidan g'alaba qozonib, Xuroson va Movaraunnahrga yo'l ochildi[2, 103-105].

1043-yilda Xorazm, 1045 – yilda esa butun Xuroson egallanib, Saljuqiylar tomonidan Movaraunnahr xududiga yurishlar boshlandi. Alp Arslon va uning vorislari bu xududlarda Siyosiy ustunlikni ta'minlashga harakat qildilar[6. 117-119].

Samarqanda va Buxoro Saljuqiylar uchun muhim madaniy va strategik markazlar edi. 1068-1070 yillarda Saljuqiy qo'shinlari Buxoroni egallab, bu yerda o'ziga sodiq noiblar tayin qildi. Samarqandda esa Qoraxoniylar Saljuqiylar suzerenligini tan olib, Alp Arslon nomidan hutba o'qila boshlandi[7. 212]. Bu xolat Saljuqiylar tomonidan siyosiy ustunlikka erishilganini, biroq ma'muriy jihatdan ular ko'proq vassallik orqali boshqaruvni amalga oshirganini ko'rsatadi[4, 76-78].

Saljuqiylar Movaraunnahrda markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etishga urindi. Devoni insho, Devoni mol va Devoni arz kabi idoralar tashkil etilib, soliqqa tortish va ijtimoiy nazorat mustahkamlandi[3, 144-146].

Mahalliy dehqonlar, ulamolar va amaldorlar orqali hokimiyat kuchi mustahkamlanib, Saljuqiylar tomonidan yuritilgan siyosiy nazorat mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga hizmat qildi[1, 221-224].

Saljuqiylar Samarqand va Buxoroda ilm fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shdi. Bu davrda madrasa va kutbxonalar faoliyati jonlandi, ayniqsa Nizomulmulk asos solgan madrasalar bu borada muhim o'rin tutdi[9, 134-137]. Buxoroda fiqh, hadis va tavsir ilmlari keng rivojlandi. Samarqand esa tibbiyot, matematika va falsafa markaziga aylandi. Mahalliy allomalar Saljuqiy homiyligi ostida o'z faoliyatini erkin olib bordilar[5, 89-93].

Saljuqiylar siyosatida Sunniylik asosiy e'tiqodiy yo'nalish bo'lgan. Ular hanafiylik va sho'fi'ilik maktablarini qo'llab-quvvatlab, shia ta'siriga qarshi kurashganlar. Buxoro va Samarqanddagi hanafiy ulamolar ulaning diniy

siyosatining tayanchiga aylangan[8, 54-58]. Imom Matrudiylar ta'limotining mustahkamlanishi ham ushbu davrga to'g'ri keladi. Saljuqiylar tomonidan qurilgan madrasa va masjidlar bu maqsadga xizmat qilgan[10, 120-125].

XII asr o'rtalariga kelib, Saljuqiylarning Movaraunnahrdagi ta'siri susaya boshladi. Qoraxoniylar va Xorazmshoxlar o'z mustaqilligini e'lon qilib, Saljuqiylar homiyligidan voz kechdilar. Biroq Saljuqiylar davrida shakllangan ma'muriy, madaniy va diniy an'analar keyingi sulolar davrida ham davom etdi. Ularning madaniyatga e'tibori, markazlashgan boshqaruv tizimi va diniy siyosati O'rta Osiyo tarixida muhim bosqich sifatida baholanadi.

NATIJALAR: Saljuqiylarning Samarqand va Buxoroga kirib kelishi Movaraunnahr tarixida muhim burilish yasadi. Ulardan oldingi G'aznaviylar va Qoraxoniylar siyosati ko'proq mahalliylik bo'lsa, saljuqiylar keng ko'lamli imperatorlik mafkurasini olib kirdi. Ular orqali birinchi amrta markazlashgan boshqaruv tizimi, devonlar va soliqqa oid islohatlar joriy etildi. Madaniy sohada esa Saljuqiylar ilm fan va diniy davlat siyosati darajasiga olib chiqdilar. Buxoro va Samarqandda Hanafiy va Matrudiylar aqidasi mustahkamlandi, bu esa diniy birdamlik va siyosiy barqarorlikni ta'minladi.

Ulamolar va olimlariga ko'rsatga homiyligi tufayli bu shaharlarda madrasa va kutubxonalar faoliyati jonlandi. Shu bilan birga, Saljuqiylar hududni bevosita emas, balki mahalliy hokimlar orqali nazorat qilgani, ularning kuchli siyosiy pragmatizmini ko'rsatadi. Shuningdek, Saljuqiylar yuritgan diniy siyosat keyinchalik butun O'rta Osiyoda sunniy islom aqidasi ustuvor bo'lishiga asos soldi. Bu holat nafaqat o'sha davrda, balki keyingi sulolarning diniy siyosatida ham o'z aksini topdi.

TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Arxiv manbalariga asoslangan xolda Saljuqiylarning Movaraunnahrdagi iqtisodiy siyosatini o'rganish: Ularning soliq siyosati, yer munosabatlari va bozorlar faoliyatiga ta'siri bo'yicha aniq hujjatlar tahlil qilinishi kerak.

- Samarqand va Buxorodagi Saljuqiylar qurdirgan madrasa va madaniy obidalarni arxeologik va tarixiy jihatdan kompleks o'rganish: Bu orqali ularning ilm fan va madaniyatga bo'lgan munosabatini yanada chuqurroq yoritish mumkin.

- Saljuqiylar davrida diniy yo'nalishlar o'rtasidagi ixtiloflar va ularning siyosiy barqarorlikka ta'sirini tadqiq qilish: Sunniy-shia qarama-qarshiliklari va ularning mahalliy aholiga ta'siri holis yondashuv asosida tahlil etilishi lozim.

XULOSA. Saljuqiylar Samarqand va Buxoroda qisqa muddat hukmronlik qilgan bo'lsada, ularning siyosiy, diniy va madaniy ta'siri uzoq davom etdi. Ular tomonidan olib borilgan islohatlar va madaniy siyosat keyingi asrlarda O'rta Osiyodagi taraqqiyotga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Khatib Al-Baghdadiy. "Tarikh Bukhara".-Beirut: Dar al-Kutu, 1998.
2. Barthold V.V "Turkistonning tarixi" – Toshkent: Fan, 2000.
3. Bosworth C.E. "The Ghaznavids and Seljuqs in Central Asia".- Tehran, 1970.
4. Gibb H.A.R. "The Empire of the Seljuqs".- Oxford. 1963.
5. Karimov Sh. "Ilm va irfon sari". –Toshkent: fan,1999.
6. Muminov I.M. "O'zbekistonning qisqacha tarixi". – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
7. Negmatov N.N. "Movaraunnahr tarixidan lavhalar". – Toshkent: Sharq, 2001.
8. Saidov S. "Inson falsafava va fiqh tarixidan".- Buxoro: Ilm ziyo, 2006.
9. Subxonov A "O'rta Osiyo madaniyati tarixidan". – Samarqand: Ma'rifat, 2003.
10. Tursunov H. "Imom Matrudiyy va hanafiylik"—Toshkent. Sharq, 2012.